



CHO'LPON MUNAQQID SIFATIDA

FarDU Filologiya fakulteti filologiya va

tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi

4 bosqich talabasi

Abdulazizxo'jayeva T

Annotatsiya: Ushbu maqola Cho'lponning adabiy tanqidiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Uning munaqidlik faoliyat o'zbek tanqidchiligida tutgan o'rni va adabiy tanqid sohasiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению литературно-критической деятельности Abdulhamid Cho'lpon. В ней рассматривается место его критической деятельности в узбекской литературной критике, а также анализируется вклад писателя в развитие области литературной критики.

Annotation: This article is devoted to the study of Abdulhamid Cho'lpon's literary critical activity. It discusses his role in Uzbek literary criticism and his contribution to the field of literary criticism.

Kalit so'zlar:

Cho'lpon adabiy tanqid "Sadoi Turkiston" Adabiyot nadur O. Sharofuddinov Cho'lpon risolasi

Ключевые слова:

Abdulhamid Cho'lpon, литературная критика, Sadoi Turkiston, Adabiyot nadur, Ozod Sharofuddinov, «Рисола о Чулпане».



Keywords:

Cho'lpon, literary criticism, "Sadoi Turkiston", "Adabiyot nadur", O. Sharofuddinov, "Cho'lpon risolasi".

Cho'lpon asl ismi sharifi Abdulhamid Sulaymon og'li Yunusov 1897 yil Andijonda tavallud topgan shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publitist bo'lishi bilan bir qatorda barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos chinakam insoniylik hislatlari mujassam bo'lgan vatanni sevgan millatparvar shaxs ham hisoblanadi. Cho'lponning ijodiy shu bilan bir qatorda adabiy tanqidiy merosi XX asr o'zbek adabiyotining eng muhim qatlamlaridan biridir. Cho'lpon o'zining o'ziga xos mulohazalari, badiiy estetik qarashlari bilan yuksak darajadagi munaqqid sifatida ham tanilgan. Uning tanqidiy maqolalari o'zbek xalqining ma'naviy yuksalishida, estetik tafakkurini shakllantirishida, adabiyot taraqqiyotiga yo'naltirilgan g'oyalarni rivojlantirishda ulkan ahamiyat kasb etdi.

Cho'lpon o'zining adabiy-tanqidiy qarashlarida adabiyotning ijtimoiy vazifasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, adabiyot jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u inson tafakkuri va ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham u ijodkor zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yozuvchi nafaqat go'zal asar yaratishi, balki xalqni ma'naviy jihatdan tarbiyalashi lozimligini ta'kidlaydi. Cho'lponning "Adabiyot nadur?" maqolasi nafaqat adabiyot haqidagi fikrlar majmui, balki o'z davri uchun muhim estetik dastur ham hisoblanadi. Unda adabiyotning inson qalbiga ta'siri, uning poklovchi kuchi, jamiyatdagi o'zni chuqur falsafiy ruhda yoritilgan. Shuningdek, Cho'lpon til masalasiga ham jiddiy e'tibor beradi. U adabiy tilning sodda, ravon va xalqchil bo'lishi tarafdori bo'lgan. Bu qarashlar keyinchalik o'zbek adabiy tilining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, Cho'lpon ijodida tanqid va publitsistika chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. U o'z maqolalarida nafaqat adabiy, balki

ijtimoiy va madaniy masalalarni ham keng yoritgan. Cho'lpon merosining qayta tiklanishi o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim voqea bo'ldi. Mustaqillikdan keyingi davrda uning tanqidiy qarashlari keng o'rganilib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Cho'lponing tanqidga doir ilk maqolasi "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914 yil 4 iyun kungi sonida "Adabiyot nadur?" nomi bilan e'lon qilindi. uning erkin ijod qilishiga to'siq bo'lgan sabablar ijodi o'rganilishiga ham uzoq yillar mone bo'lib turdi. Istibdod zamonida Cho'lpon ijodini o'rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish taqiqlangani uchun keng jamoatchilikka emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham Cho'lpon ijodining bu qirrasini to'g'risida g'oyat mavxum va tumanli tasavvurga ega edilar. Keyingi yillarda Sh. Turdiyev, N. Karimov, B. Do'stqoraev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Quronov, U. Sultonov, O. Sharofuddinov kabi adabiyotshunos olimlarning harakati bilan Cho'lponing inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo'lib qolgan, jurnal va gazetalarda sochilib yotgan adabiy tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. O. Sharofuddinovning ilmiy maqolalarida keltirilgan malumotga ko'ra yosh Cho'lponshunos N. Yo'ldoshev Cho'lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e'lon qilib, unda birinchi marta Cho'lpon maqolalari ro'yhatini berdi. Bibliografiyada ko'rsatilishicha, shoirning 1914-37 yillarda chop etilgan adabiy tanqidiy maqolalari 63 tani tashkil etgan.

O. Sharofuddinovning 1991 yilda bosilgan "Cho'lpon" risolasining beshinchi bobi adibning munaqqidlik va tarjimonlik faoliyatiga bag'ishlangan. Uning 1993 yilda Istiqlol fidoiylari turkumida chiqqan "Mustafo Cho'qay, Cho'lpon, Otajon Hoshim" kitobchasida ham cho'lponning munaqqidlik faoliyatini bir qadar kengroq tahlil qilgan. U. Sultonov esa 1993 yilda Cho'lponning adabiy tanqidiy qarashlari mavzusida nomzodlik desertatsiyasini yoqlagan.

Cho'lpon adabiyotni inson ruhiyati bilan bog'liq hodisa deb qaraydi." Adabiyot chin manosi ila o'lg'an, so'lg'an, o'chg'an, majruh yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singigan qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on, toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarni yorug' va ravshan qiladurg'on, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artup tozalaydurg'on buloq suvi bo'lg'anlikdan bizg'a g'oyat kerakdur".

Adib adabiy tanqidni adabiyot taraqqiyotining muhim omili deb biladi. Tanqid badiiy asarning yutuq va kamchiliklarini ochib berib, ijodkorni yanada mukammal asarlar yaratishga undaydi. Shu jihatdan Cho'lpon tanqidni faqat baholash vositasi emas, balki adabiyot rivojiga xizmat qiladigan ijodiy jarayon sifatida talqin qiladi. Cho'lponning adabiyot va san'at masalalariga bag'ishlangan faoliyati kichik maqolalardan iborat bo'lsa da, ularning ayrimlari dasturiy ahamiyatga ega. 1914 1915 yillarda yozilgan "Adabiyot nadur?" Va "Muhtaram yozg'uchilarimizga" maqolalari bilan adabiyot va san'atning xalq va jamiyat oldidagi vazifasini, tarbiyaviy ma'rifiy ahamiyatini aniq belgilab berdi. U Cho'lpon maqolalari bilan adabiy tanqid, san'atshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarining paydo bo'lishi va shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Cho'lpon sho'ro davlatining doimiy tziyqi va nazorati ostida yashagani sababli uning ko'plab qo'lyozmalari o'g'irlandi. U 1937 yilda "xalq dushmani" sifatida ayblanib, qamoqqa olinishi arafasida va keyin ham barcha qo'lyozma asarlari kuydirib tashlandi. Shunga qaramay , Cho'lpondan bizga qadar yetib kelgan 10 jild asarlar o'zbek xalqining katta madaniy va ma'naviy boyligidur.

Xulosa

O'zbekiston mustaqillikka erishgach Cho'lponning o'zbek madaniyatini rivojlantirish va xalq ommasini istiqlool ruhida tarbiyalash ishiga qo'shgan hissasi yuksak baholandi. So'nggi yillarda jadid adabiyoti namoyondalari shu



jumladan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga alohida etibor qaratilmoqda. Ularning shaxsiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib asarlari yangidan kashf etilmoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, Cho'lponning munaqqidlik faoliyati o'zbek tanqidchiligida qiyos etib bo'lmas o'ringa ega. Munaqqid o'zbek tanqidchiligining asoschilaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1 N. Karimov Cho'lpon. T: Fan.1991.

2 Sharofuddinov. O. Cho'lponni anglash. T: Xazina. 1994

3 Cho'lponning badiy olami {toplami}, T: Fan 1994.4 Adabiyot yashasa millat yashar,, O. Sharofuddinov

Internet ma'lumotlari

1 Tafakkur.net

2 Jadid.uz

3 Kh davron.uz

